

**TA'LIM SAHOSI UCHUN O'ZBEK OLIMLAR TOMONIDAN TAQDIM
ETILGAN ELEKTRON TA'LIM RESURLARINI TAHLIL QILISH.**

Shanazarova Shaxzada Ilyasovna,

Nukus davlat texnika universiteti “Ma'lumotlarni uzatish tizimlari va tarmoqlari”
kafedrası assistent o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektron ta'lim resurslari, elektron ta'lim resursining ta'lim jarayonidagi o'zni va ta'lim sahosi uchun o'zbek olimlar tomonidan taqdim etilgan elektron ta'lim resurslarini tahlil qilingan va yoritilgan.

Tayanch so'zlar: raqamli texnologiyalar, ta'lim resurslari, elektron ta'lim resurslari, interaktiv elektron o'qitish resurslari.

Annotation. This article analyzes and covers e-learning resources, the role of the e-learning resource in the educational process and the e-learning resources provided by Uzbek scientists for the educational sphere.

Keywords: digital technology, educational resources, e-learning resources, interactive e-learning resources.

Hozirgi kunda ta'lim tizimini axborotlashtirishdan raqamlashtirishga o'tkazish sohasidagi asosiy vazifalaridan biri bu yuqori sifatli va samarali elektron ta'lim resurslarini yaratish. Bu “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorini[1] amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi.

Elektron ta'lim resurslari (ETR) – bu elektron qurilmalar yordamida o'quv jarayonida foydalanish uchun raqamli shaklda taqdim etilgan o'quv materiallari.[2] Bular elektron darsliklar, interaktiv kurslar, video darsliklar, testlar, ma'lumotlar bazalari, simulyatsiyalar va elektron shaklda mavjud bo'lgan boshqa manbalar bo'lishi mumkin. Elektron ta'lim resurslari talabalarning o'zlarini ustida ishlashda katta rolni bajaradi. O'z-o'zini ustida ishlash juda muhim jarayon, boshqa holatda

printsipial jihatdan to'liq ta'lim olish mumkin emas, chunki talabalar tarafidan olingan o'rganish qobiliyatlari asosida majburiylik bo'lishi kerak va mustaqil o'rganish, o'zini ta'lim faoliyatini mustaqil ravishda qurish imkoniyatiga ega bo'lish, o'quv jarayonini rejalashtirish va kerakli narsalarni qidirish, mustaqil bilim olish jarayoni uni keying ish faoliyatida tahlil qilish uchun ham za'rur.

Bizning respublikamiz olimlaridan:

O. Zaripov tarafidan "Kompyuter grafikasi" fanidan "Learn Graph" interaktiv elektron ta'lim resursi, Interaktiv elektron ta'lim resursining afzalligi shundaki, o'qituvchi og'zaki tushuntiradigan amaliy va laboratoriya jarayonlarini kompyuterda Interaktiv elektron ta'lim resursidan foydalanib bir necha daqiqada ko'rsatish mumkin.

A.Janabergenova tarafidan "Matematika" fanidan o'quv muhitida talabalarning mustaqil ishlarini takomillashtirish metodologiyasi bo'yicha elektron ta'lim resursi, "Matematik fanlar va matematik modellashtirish" elektron darsligi matematikada matematik modellashtirishga bag'ishlangan o'quv-uslubiy manba hisoblanadi. Mazhur elektron ta'lim o'quvchilarga bilimlarni o'zlashtirish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradigan o'quv manbai.

K. Nurmuxanov tomonidan "Analitik geometriyani o'qitish usullari" elektron axborot-ta'lim resursi talabada geometriya faniga bo'lgan qiziqishning o'sishiga, qolaversa, geometrik bilimni o'stirishga, geometrik jismlarning shakllarini taasavur etishga yordam beradi.

X. E. Tangirov tomonidan umumta'lim fanlarini o'qitishga xizmat qiladigan elektron ta'lim resurslari tizimli shaklda kompleks tarzda taqdim etildi va elektron ta'lim resurslarining Internet versiyasi yaratildi va internetda (veb-saytga) joylashtirildi (www.edarslik.uz). Umumta'lim maktablari uchun matematika, informatika, biologiya dasturlari bo'yicha o'qitiladigan fanlardan elektron ta'lim resurslari haqida ma'lumotlar joy olgan. Shuningdek, ushbu saytga umumta'lim maktablari matematika dasturi bo'yicha matematika, informatika va axborot texnologiyalari, algebra, geometriya, botanika, biologiya fanlaridan sinflarga ko'ra

maktab darsligi asosida yaratilgan elektron ishlanmalar, elektron o'quv qo'llanmalar, elektron darsliklar, elektron o'quv-uslubiy majmualarni joylashtirish loyihalashtirilgan. Bu yaratilgan ta'lim sahosi uchun yaratilgan elektron ta'lim resurslari qatnashuvchilar shu saholar bo'yicha bilim olishlari uchun ijabiy xizmat ko'rsatmoqda. Bu kelajakda ta'limni raqamlashtirish uchun roli katta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.08.2017 yildagi PQ-3245-sonli qarori
2. Shanazarova Shaxzada Ilyasovna "Ta'limda raqamli texnologiyalar" kursini o'qitishda interaktiv resurslardan foydalanishimkoniyatlari TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTLARI 2025, 4-SON
3. Shanazarova Shaxzada Ilyasovna "Interaktiv elektron darslikni yaratishga qo'yiladigan talablar" TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTLARI 2025, 5-SON